

## SAMARQANDDA AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING VILOYAT MIKROIQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI

**Suvanova Dilsora Nuraliyevna**

Samarqand Davlat Universiteti, magistranti

[suvanovadilsora@gmail.com](mailto:suvanovadilsora@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Samarqand viloyatida agroturizm sohasini tizimli va rejali rivojlantirishning mikroiqtisodiyatdagi roli yoritib berilgan. Bunda asosiy e'tiborni viloyatning turizm salohiyatiga qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** WTCF, agroturizm, turizm qishlog'i, Uzbekturizm, Konigil, Tersak.*

## THE ROLE OF DEVELOPING AGROTOURISM INDUSTRY IN MICROECONOMICS OF SAMARKAND REGION

***Annotation:** Significance of the systematic and strategic improvements in microeconomics of Samarkand region are expounded in this article. The main attention is aimed to potential of region tourism.*

***Key words:** WTCF, agrotourism, tourism village, Uzbektourism, Konigil, Tersak*

Samarqand qadimdan o'zining takrorlanmas tabiati va o'zgacha jozibasi bilan dunyo xalqlarini e'tibor markazida bo'lib kelgan va bugungi kunga kelib ham o'z mavqeini yo'qotmadi. Samarqand bu zamin necha ming yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelayotgan navqiron shahar bo'lib, uning tarovati betakror va hamisha navqiron ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Budungi kunda yurtimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar Samarqandni ham chetlab o'tayotgani yo'q albatta. Necha ming yillik tarixga ega bo'lgan shaharning tarifiyu-tavsifini butun dunyo mamlakatlari allaqachon eshitgan va uni bir marta bo'lsa ham kurish uchun albatta oshiqadilar. Ayniqsa aholisining ko'p qismi islom diniga e'toqod qiluvchi mamlakatlarda ham Samarqandga kelish ishtiyoqi juda yuqori. Bunga asosiy sabablardan biri esa mazkur kuhna va boqiy zamizda hadisshunos olimu-fuzalolarning tabarruk hoklari tukilgan hamda ular orasida barchamizga ma'lum va maashhuri Imom al-Buxoriy maqbarisidir. Umuman olganda Samarqandda bunday tarixiy qadamjolar juda ko'p bo'lib ularning aksariyati UNESCO ning butunjahon ma'daniy meroslari ro'yhatidan joy olgan hamda muhofazaga olingan. Samarqandda turizm salohiyati juda yuqori ekanligi barchamizga ma'lum va shuning uchun ham shahar dunyodagi eng yirik 180 dan ortiq turistik

shaharlarni birlashtirgan WTCF (World Tourism Cities Federation) ya'ni Butunjahon sayyohlik shaharlari federatsiyasi ga a'zo bo'ldi. Shu bois viloyatda sayyohlar oqimini ko'paytirish, xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish maqsadida turli yirik xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, forumlar hamda kurgazmalar o'tkazish bo'yicha ham loyihalar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizning har bir hududi turizm resurslariga juda boy bo'lib, turizmning salohiyatli tarmoqlari bilan birga kichik ya'ni noan'anaviy bo'lib kuringan resurslaridan ham keng qamrovda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kunda turizm sohasi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida eng tez o'sib borayotgan hamda serdaromad tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, mamlakatlar iqtisodiyoti hamda aholi sonining o'sib borishi natijasida turistik resurslarga bo'lgan talab ham oshib boraveradi. Chunki mamlakat aholisi turmush tarzining yaxshilanib borishi tufayli, ularning dam olib maroqli hordiq chiqarishlari va sog'lomlashtirish, sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan joylarga talabi oshib boradi. Bu esa o'z navbatida aynan turizm va uning maxsus turlarini rivojlantirish, hududlarning tabiiy sharoitidan kelib chiqqan holda tarmoqlarni joylashtirish hamda ularni aholi talablariga mos holda rivojlantirishmi taqozo etadi. Yuqorida keltirib o'tilgan masalalar yechimini topishning samarali yo'llar bilan hal qilish maqsadida davlatimiz rahbari mazkur sohani rivojlantirishni davlat siyosati darajasigacha ko'targan va turli farmonlar, qaror hamda qonunlar qabul qilingan. Qabul qilingan normativ hujjarlarning amaliy ijrosini ta'minlash maqsadida joylarda tegishli tartibda tashkilotlar faoliyat olib bormoqda. Aynan mana shunday tashkilotlardan eng kuzga ko'rinadiganlaridan biri bu Uzbekturizm hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlarini 2017-2021 yillarda yanada taraqqiy ettirish bo'yicha yo'l xaritalari ishlab chiqildi va uni amalga oshirish yuzasidan har bir soha imkoniyatlarini hisobga olgan holda mutassaddi vazirlik va tashkilotlarga vazifalar belgilab berildi. Harakatlar strategiyasining uchinchi-iqtisodiyotni rivojlantirish va leberallashtirish ustuvor yo'nalishlarida respublikada turizm infrastrukturasi rivojlantirish yuzasidan quyidagi asosiy vazifalar, ya'ni turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash. Turizm inforatuzilmasini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi masalani naqadar dolzarbligini belgilaydi. Turizm infrastrukturasi rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda muhim ahamiyati shuki tarmoqni rivojlantirish bo'yicha respublikamiz ulkan imkoniyatlarga ega ekanligidir. Turizm va uning maxsus turlarini rivojlantirish natijasida aholining dam olib hordiq chiqarishlari orqali ishlash samaradorligini

oshirish bilan birga aholining ishsizlik qatlamini kamaytirish ya'ni ishsizlar sonini qisqartirish hamda iqtisodiyotga daromad keltirish mumkin.

Shaharning sershovqin va gavjumligidan zerikdingizmi? Dam olib xordiq chiqarmoqchimisiz yoki sog'ligingizni tiklash niyatingiz bormi? Marhamat qishloqqa tashrif buyuring hamda uning musaffo tabiatidan bahra oling. Agroturizm aynan qishloq turizmi dastlab dehqon, fermer turizmi kabi nomlar bn XX asrning 70-yillaridan boshlab rivojlana boshladi. Shunga qaramay turizmning mazkur tarmog'i bugungi kunda jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. A.N.Bulgakova (1998) fikricha, qishloq turizmi-bu turizmning maxsus turi bo'lib, qishloq tabiati, hayot tarsi va qishloq xo'jalik yuritish an'analari (professional va noprofessional tarzda) bilan tanishtirish maqsadida qishloq hududlarida tashkillashtirilgan va tashkil etilmagan shakllarni o'z ichiga oladigan turistlarning dam olish shakli. Qishloq joylarga turistlar oqimining ortishi ularning bo'sh vaqtlarini agrolandshaftlar bag'rida o'tkazish, qishloq hayotini his qilish va qishloq aholisi bilan muloqot qilishi, hattoki qishloqlarda yashash hamda shu bilan birga ishlash ishtiyoqining ortib borishi bilan ham izohlanishi mumkin.

Samarqand viloyatining turizm va uning maxsus turlaridan ayniqsa agroturizm resurslaridan foydalanish imkoniyati respublikamizning boshqa hududlariga qaraganda ancha yuqori bo'lib, buning asosiy sabablaridan qilib quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin; viloyat hududida dehqonchilik qilinadigan yerlarning tabiiy geografik manzaralari, hududdan oqib o'tuvchi Zarafshon daryosi tevarak atrofidagi landshaftlar va boshqa shu kabilar. 2018 yil uchun tasdiqlangan davlat dasturining 104-punkti doirasida 4 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Agroturizmni rivojlantirish dasturi" tasdiqlandi va bu o'z navbatida mazkur tarmoqning rivojlanishini ta'minlaydi. Qishloq turizmini ya'nikim agroturizmni rivojlanishida muhim bo'lgan tamoyillardan yana biri agroturistik mahsulotlar, o'rta daromadga ega iste'molchilar talabini qondirayotganligi bilan izohlanadi. Bugungi kunga kelib bunday toifadagi iste'molchilar agroturizm segmentida juda katta ulushni tashkil qiladi. Ushbu sohada yaratilayotgan turmahsulotlar nisbatan kam harajat talab qiladi. Umuman olganda Samarqand viloyatining barcha tuman va hududlarida agroturizmni rivojlantirish imkoniyati juda yuqori 2020 yilda tashkil etilgan Samarqand tumanidagi Konigil qishlog'ida 3,0 gektar hududda uzunligi 840 metr piyodalar yo'lagi tashkil etildi. 38 ta turistik hamda xizmat ko'rsatish ob'yekti ishga tushirildi. Joriy yilda mazkur loyihaning ikkinchi bosqichi amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Urgut tumanidagi Tersak, Qo'shrabot tumanidagi Pangat, Kattaqo'rg'on tumanida Andoqsoy va Payariq tumanidagi Choshtepa qishloqlari turistik go'shaga aylantirilmoqda.

Samarqand viloyati statistik ma'lumotlari tahliliga qaraydigan bo'lsak, yillar kesimida mahalliy va xorijiy sayyohlarning tashrif darajasini o'zgarib borish parametrlarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan 2019 yilda 560 ming nafar xorijlik va 3 million nafardan ortiq mahalliy sayyohlarning tashrif buyurganligi, keying yillarda esa pandemiya ta'sirida sayyohlar sonining sezilarli darajada kamaygan bo'lishiga qaramay bugungi kunga kelib karantin talablari bosqichma-bosqich olib tashlanmoqda bu esa o'z navbatida turistlar oqimining ko'payishiga zamin yaratib beradi. 2020 yil yakuni bo'yicha esa chet ellik turistlarning umumiy soni 49 ming 500 nafar va mahalliy turistlar esa 474 ming nafarni tashkil qilgan xolos. Shulardan MDH mamlakatlaridan 5 327 kishi, uzoq xorijiy mamlakatlardan kelganlar soni 8 073 kishini tashkil qiladi. 2021 yil bo'yicha esa 2 million 668 ming 300 nafardan ortiq sayyohlar tashrifi ro'yhatga olingan bo'lib, shulardan, 491 ming 300 nafari xorijlik, qolganlari esa mahalliy tashrif buyuruvchilar ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, Samarqandga tashrif buyuruvchi sayyohlardan keladigan daromad bevosita viloyat mikroiqtisodiyotiga salmoqli darajada foyda keltiradi va aholining turizm va uning maxsus tarmoqlarida band bo'lishlarini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nafaqat Samarqand balki butun O'zbekiston hududi turizmni rivojlantirish uchun juda katta potensialga ega bo'lishiga qaramay Hali bu sohani to'laqonli rivojlantirish uchun ayrim muammolar o'z yechimini topishini kutmoqda. Bunday muammolarga turizm infratuzilmasi va industriyasining yaxshi rivojlanmaganligi, malakali kadrlarning yetishmasligi, turistik marshrutlarning talab darajasida emasligi va shu kabilarni sanab o'tishimiz mumkin. Global dunyoda mamlakat iqtisodiyotiga daromad keltiradigan va aholiga xizmat ko'rsatadigan sohalarga bo'lgan talab oshib boraveradi va bu esa aynan mazkur tarmoqlarni rivojlantirishni taqozo etadi. Turizm sohasini yanada rivojlantirish va mamlakatimizga turistlar oqimini kengaytirish uchun amalga oshirishimiz kerak bo'lgan tizimli ishlar mavjud bo'lib, ularni amaliy ahamiyatini oshirish uchun quyidagi takliflarni berib o'tishni lozim deb topildi.

1. Har bir hududdagi turistik obektlarni xaritalashtirish va uni elektron variantini yaratish;
2. Turistik obektlar haqida qisqa mitrajli video roliklar tayyorlash va ularni ommalashtirish,
3. Internet saytlari orqali reklamani kuchaytirish
4. Turistik marshrutlar tashkil qilish
5. Infratuzilmani yanada rivojlantirish

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni - Toshkent, 2017
2. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник-М.:Аспект Пресс,2002
3. Хошимов М. Ўзбекистоннинг экологик туризми.-Самарқанд, 2012
4. Usmanov M.R. Turizm geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. — Samarqand, 2020
5. Комилова Ф. Халқаро туризм бозори. –Т.: TDIU, 2001.
6. Хайитбоев Р., Матякубов У. Экологик туризм.-Самарқанд. 2010
7. Хайитбоев З., Амридинона Р., Туризмнинг махсус турлари. Самарқанд 2008
8. *Нигматов А.Н.* Агротуризм ва унинг табиий географик жиҳатлари. *Монография.*–Т.: «Наврўз» нашриёти, 2018.

[www.samstat.uz](http://www.samstat.uz)

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)